

UDK 330.43:311(575.1)

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BIZNES RIVOJLANISH JARAYONLARINI STATISTIK BAHOLASH VA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH

Saidova Marhabo Xabibullo qizi

Britaniya Menejment Universiteti, dotsent

saidovamarhabo1991@gmail.com

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida biznes rivojlanish jarayonlarini statistik baholash va ekonometrik modellashtirish masalalari ko‘rib chiqildi. Tadqiqot davomida so‘nggi yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi va ular tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi tahlil qilindi. Regression-korrelyatsion tahlil yordamida kichik biznesning hududiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’siri baholanib, investitsiya hajmi, bandlik darajasi va iqtisodiy diversifikatsiya bilan o‘zaro bog‘liqligi aniqlangan. Ekonometrik yondashuvlar asosida vaqt qatorlari va panel ma’lumotlar tahlili amalga oshirilib, qisqa va uzoq muddatli prognoz natijalari shakllantirildi. Ssenariy tahlili orqali optimistik, bazaviy va pessimist yo‘nalishlarda kichik biznes xizmatlarining rivojlanish istiqbollari ko‘rsatildi. Tadqiqot natijalari kichik tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, hududiy tafovutlarni kamaytirish va davlat siyosatini takomillashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: biznes rivojlanishi, kichik tadbirkorlik, statistik baholash, ekonometrik modellashtirish, regression tahlil, korrelyatsiya, xizmatlar hajmi, investitsiya, bandlik, YaIM, hududiy tafovutlar, raqamli transformatsiya, ssenariy tahlil, prognozlash, iqtisodiy siyosat.

АННОТАЦИЯ. В данной статье рассматриваются вопросы статистической оценки и эконометрического моделирования процессов развития бизнеса в Республике Узбекистан. В ходе исследования проанализирована динамика доли субъектов малого предпринимательства в валовом внутреннем продукте и объем оказываемых ими услуг за последние годы. С помощью регрессионно-корреляционного анализа выявлено влияние малого бизнеса на региональные экономические показатели, включая взаимосвязь с объемами инвестиций, уровнем занятости и диверсификацией экономики. На основе эконометрических подходов проведен анализ

временных рядов и панельных данных, что позволило сформировать краткосрочные и долгосрочные прогнозы. Сценарный анализ позволил определить оптимистические, базовые и пессимистические траектории развития сектора услуг малого бизнеса. Полученные результаты имеют практическую ценность для поддержки предпринимательства, сокращения региональных диспропорций и совершенствования государственной политики.

Ключевые слова: развитие бизнеса, малое предпринимательство, статистическая оценка, эконометрическое моделирование, регрессионный анализ, корреляция, объем услуг, инвестиции, занятость, ВВП, региональные различия, цифровая трансформация, сценарный анализ, прогнозирование, экономическая политика.

ABSTRACT. This article explores the issues of statistical assessment and econometric modeling of business development processes in the Republic of Uzbekistan. The study analyzes recent trends in the share of small business entities in gross domestic product (GDP) and the volume of services they provide. Using regression-correlation analysis, the impact of small businesses on regional economic indicators is assessed, highlighting their relationship with investment volumes, employment levels, and economic diversification. Econometric approaches, including time series and panel data models, are applied to generate both short-term and long-term forecasts. Scenario analysis further outlines optimistic, baseline, and pessimistic trajectories for the development of the small business service sector. The findings provide practical implications for supporting entrepreneurship, reducing regional disparities, and improving state economic policy.

Key words: business development, small business, statistical assessment, econometric modeling, regression analysis, correlation, service volume, investment, employment, GDP, regional disparities, digital transformation, scenario analysis, forecasting, economic policy.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida biznesning faol rivojlanishi milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishining muhim omili hisoblanadi. Bunda, korxonalar faoliyatini ilmiy asosda tahlil qilish va istiqbol prognozlarini shakillantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, so'nggi yillardagi tashqi shoklar menejrlardan qarorlarni aniq dalillarga tayangan holda qabul qilishni talab etadi.

Jahon bankining "Global Economic Prospects" 2025 hisobotida jahon YAIM o'sishi prognozida so'nggi o'n yilliklardagi eng sust dinamiklardan biri bo'lishi, savdo to'siqlari va siyosiy noaniqliklar bilan izohlangan[1].

O'zbekiston uchun bu masala ikki jihatdan dolzarb: birinchidan, tashqi talabdagi sustlashuv eksportga yo'naltirilgan tarmoqlarda risklarni oshiradi;

ikkinchidan, ichki bozorning kengayishi, import o'rnini bosish va xizmatlar iqtisodiyotining rivoji yangi imkoniyatlar yaratadi. Mamlakatda so'nggi yillarda tadbirkorlik muhitini yaxshilash, soliq-ma'murchiligini soddalashtirish, ERP/CRM va fintech yechimlarini joriy etish, hamda sanoat klasterlari va erkin iqtisodiy zonalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonlar samaradorligini baholash va istiqbol stsenariylarini ishlab chiqishda statistik baholash va ekonometrik modellashtirish vositalari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Mavzuning ahamiyati shundaki, mikro (korxonalar) va makro (tarmoq/region) darajalarda dalillarga asoslangan boshqaruvni yo'lga qo'yish uchun ko'rsatkichlarni (savdo hajmi, qo'shilgan qiymat, mehnat unumdorligi, investitsiya faolligi, eksport-intensivlik, innovatsion faollik va h.k.) tizimli ravishda yig'ish, tozalash va tahlil qilish talab etiladi. Ekonometrik yondashuvlar – panel ma'lumotlar modeli, vaqt qatori modellari (ARIMA/ARIMAX), strukturaviy vektor autoregressiyalari (SVAR), sababiy ta'sirni baholash, hamda mashinaviy o'rganish asosidagi prognozlash – biznes sikllari va siyosat choralari natijaviylikni aniqlik bilan baholash imkonini beradi. Bu esa resurslarni maqbullashtirish, risklarni boshqarish va strategik rejalashtirish sifatini oshiradi.

Global iqtisodiy sharoitdagi noaniqliklar, tashqi bozorlar talabining sekinlashuvi hamda ichki bozorda raqobatning kuchayishi tadbirkorlik faoliyatini ilmiy asosda baholashni talab qilmoqda. Statistik baholash va ekonometrik modellashtirish biznes jarayonlarining samaradorligini aniqlash, risklarni boshqarish hamda davlat siyosatining natijadorligini baholashda ishonchli vosita bo'lib xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

So'nggi yillarda statistika asosidagi baholash hamda ekonometrik modellashtirish usullaridan foydalanilgan tadqiqotlar biznes va hududiy rivojlanish jarayonlarini tahlil qilishda keng qo'llanilmoqda.

Mahalliy olimlardan M.X.Saidova O'zbekistonda kichik biznes rivojlanish jarayonlarini statistik baholash hamda ekonometrik modellashtirishni tahlil qiladi. Bu tadqiqot panel yoki vaqt ketma-ketlik modellari orqali hududlararo farqlarni aniqlab berdi[2].

A.Usmanov, A.Qodirov Farg'ona viloyatida investitsiya faolligi va YAIM o'sishi o'rtasidagi munosabatni ARDL (Autoregressive Distributed Lag) modeli yordamida tahlil qilgan. Ular qisqa va uzoq muddatli samaralarni ajratib ko'rsatish bilan, investitsiya siyosatini yanada aniqroq shakllantirish imkonini taklif etishgan[3].

M.Tuxta, O'zbekistonda sanoat sektorining iqtisodiy o'sishga ta'sirini econometric model yordamida baholagan. Ya'ni, sanoat tarmoqlarining YAIMdagi ulushi va samaradorligini aniqlagan, tarmoq asosidagi iqtisodiy rivojlanish siyosatlarini yo'lga qo'yishda muhim natijalar beradi[4].

N.Rasulova O‘zbekiston sharoitida “yashil turizm” rivojlanishini VAR modeli bilan modellashtirgan. U sayyohlik, ekologiya va investitsiya orasidagi dinamik munosabatlarni tahlil qilib, barqaror turizmni iqtisodiy rivojlanish elementi sifatida baholagan[5].

S.Otaqo‘zieva Pochtachilik xizmatlarini optimallashtirishni ARDL va boshqa usullar orqali modellashtirib, raqamli transformatsiya va xizmat samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan yechimlarni taklif qilgan[6].

Xorijiy olimlardan Rubilar-Torrealba Logit va probit kabi iqtisod-matematik regressiya usullarini qo‘llab, tadbirkorlikka qaror qabul qilishda individuallar ijtimoiy-iqtisodiy omillar (daromad, tajriba, gender, ta‘lim) ta‘sirini ishlab chiqqan. Bu tadqiqot biznesning mikro darajadagi motivatsiyasini tushunishda ahamiyatlidir [7].

B.Oancea O‘zbekistonga to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqasi yo‘q, lekin umumiy iqtisodiy bashorat uchun muhim bo‘lgan ULSTM kabi neuro-tarmoqli mashinaviy o‘rganish metodlarini qo‘llab, YAIMni an‘anaviy SARIMA modellariga nisbatan yuqori aniqlik bilan bashorat qilishni ko‘rsatgan. Bu yondashuvlar biznes transformatsiyasida innovatsion prognozlash imkoniyatlarini ochadi[8].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda biznes rivojlanishini statistik baholash va ekonometrik modellashtirish masalalari xalqaro va milliy miqyosda keng tadqiq qilinmoqda. Turli olimlarning ishlarida kichik va o‘rta biznes faoliyatini prognozlash, investitsion oqimlarning samaradorligini aniqlash, raqamli transformatsiyaning iqtisodiy o‘lishga ta‘sirini baholash hamda biznes sikllarini aniqlashda zamonaviy statistika va ekonometrik yondashuvlardan samarali foydalanilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosi O‘zbekiston Respublikasida biznes rivojlanish jarayonlarini ilmiy asosda baholash va prognozlashga qaratilgan. Bu jarayonda bir nechta zamonaviy ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanish ko‘zda tutiladi.

Avvalo, statistik tahlil orqali biznes subyektlari faoliyati to‘g‘risidagi asosiy ko‘rsatkichlar tizimlashtiriladi va ularning dinamikasi aniqlanadi. Statistik ko‘rsatkichlarni vaqt bo‘yicha solishtirish, tendensiyalarni belgilash hamda hududiy tafovutlarni o‘rganish tadqiqotning birlamchi asosini tashkil etadi.

Keyingi bosqichda, regression-korrelyatsion tahlil yordamida iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklar aniqlanadi. Masalan, investitsiya hajmining ishlab chiqarish hajmiga yoki kichik biznesning bandlik darajasiga ta‘sirini o‘lchash imkoniyati yaratiladi. Ushbu yondashuv biznes rivojlanishiga eng ko‘p ta‘sir etuvchi omillarni aniqlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, ekonometrik tahlil qo‘llanilib, vaqt qatori modellari (ARIMA, ARDL, VAR, SVAR) yoki panel ma‘lumotlar modellari asosida biznes rivojlanish jarayonlarining qisqa va uzoq muddatli prognozlari ishlab chiqiladi. Bu orqali

iqtisodiy siyosat choralarining natijaviyligi va biznes sikllarining istiqbollari baholanadi.

Bundan tashqari, tadqiqotda ssenariy tahlili (scenario analysis) ham amalga oshiriladi. Bu uslub turli tashqi va ichki sharoitlarda (masalan, global talabning pasayishi, soliq imtiyozlarining kengayishi, raqamli transformatsiyaning tezlashishi) biznes rivojlanishi qanday yo‘nalishda kechishini aniqlash imkonini beradi. Natijada, iqtisodiy siyosat ishlab chiquvchilar va tadbirkorlik subyektlari uchun tavsiya etiladigan turli rivojlanish stsenariylari shakllantiriladi. Ushbu metodologiya biznes rivojlanish jarayonlarini ko‘p qirrali tahlil qilish, asosiy determinantlarni aniqlash va ilmiy asoslangan prognozlar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Natijada, tadqiqot O‘zbekiston iqtisodiyotida tadbirkorlik muhitini yanada samarali boshqarish hamda barqaror o‘shishni ta‘minlashga qaratilgan nazariy va amaliy xulosalarni shakllantiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida biznes muhitini rivojlantirish, tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda iqtisodiy o‘shishning barqaror manbalarini shakllantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni iqtisodiy o‘shishning asosiy drayverlaridan biriga aylantirish ustuvor vazifa etib belgilandi. Shu asosda so‘nggi yillarda soliq yukini kamaytirish, kredit va moliyaviy resurslardan foydalanishni kengaytirish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish va biznes yuritish sharoitlarini soddalashtirish bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirildi.

2024 yilda kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 55 foizdan ortiqni tashkil etdi, bu ko‘rsatkich 2016 yilda 45 foiz atrofida bo‘lganini hisobga olsak, so‘nggi yillarda sezilarli o‘shish kuzatilgan. Bandlik masalalarida ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hal qiluvchi rol o‘ynamoqda – 2024 yil yakunlariga ko‘ra mamlakatda faol aholi bandligining qariyb 75 foizi mazkur sektor hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

So‘nggi yillarda biznesni qo‘llab-quvvatlashda raqamli texnologiyalar jadal joriy etilmoqda. “Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali” orqali tadbirkorlik subyektlari uchun litsenziya va ruxsatnomalarni olish, soliq hisobotlarini topshirish va bojxona jarayonlarini amalga oshirish ancha soddalashtirildi. Bundan tashqari, elektron tijorat hajmining o‘shishi ichki bozorni kengaytiribgina qolmay, yangi eksport imkoniyatlarini ham yuzaga keltirmoqda.

Investitsiya sohasida ham sezilarli natijalarga erishilmoqda, 2023-2024 yillarda xorijiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar hajmi oshib, yangi sanoat korxonalarini va erkin iqtisodiy zonalar tashkil etildi. Bu esa hududlarda ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish, infratuzilmani yaxshilash va yangi ish o‘rinlarini yaratishga xizmat qildi. Ayniqsa, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish,

startaplarni qo‘llab-quvvatlash va klaster yondashuvini kengaytirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Umuman olganda, tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, O‘zbekistonda biznes rivojlanishining asosiy tendensiyalari soliq-ma‘murchilikni soddalashtirish, raqamli transformatsiya, moliyaviy resurslardan foydalanishni kengaytirish va hududiy investitsiya muhitini yaxshilash orqali namoyon bo‘lmoqda. Natijada, tadbirkorlik subyektlari soni ko‘payib, ularning iqtisodiyotdagi ulushi oshmoqda hamda mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligiga sezilarli hissa qo‘shmoqda.

1-jadval

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami YaIMdagi ulushi, foizda[9]

Hududlar	yillar						
	2020	2021	2022	2023	2024	2025-Q1	2025-Q2
O‘zbekiston Respublikasi	57,5	56,9	54,6	54,3	54,3	45,6	49,6
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	62,3	61,4	61,8	64,6	65,8	59,5	61,4
Andijon viloyati	72,7	74,6	69,6	68,6	69,5	60,9	67
Buxoro viloyati	76,6	77,1	74,1	72,5	73	63,3	70,5
Jizzax viloyati	84,1	81	78,7	75,3	74,4	66,1	68,9
Qashqadaryo viloyati	74,1	71,8	70	70,5	71	62,7	67,7
Navoiy viloyati	27,8	29,2	27,9	28,1	25,1	18	21,2
Namangan viloyati	76,3	76,2	74,7	74,3	73,4	67,3	70,1
Samarqand viloyati	75	74,3	70,8	72,3	72,3	65,9	68,2
Surxondaryo viloyati	78	78,4	77,9	77,4	77,8	72,4	76,3
Sirdaryo viloyati	73	71,2	67,8	65,9	68,2	62,1	66,9
Toshkent viloyati	52	48,2	49,4	52,2	53,9	50,1	52,2
Farg‘ona viloyati	73,3	72,4	71,6	72,2	73,1	68,3	70
Xorazm viloyati	77,4	75,8	71,9	72,7	72,3	65,8	69
Toshkent shahri	53,6	51,1	51,2	51,7	52,4	48,9	49,9

1-jadval ma‘lumotlariga ko‘ra hududlar kesimida sezilarli tafovutlar kuzatilmoqda, masalan, Jizzax viloyati ko‘rsatkichlari 2020 yilda 84,1%ni tashkil etib, eng yuqori darajani namoyon qilgan. 2025-yilning ikkinchi choragida ham bu ko‘rsatkich 68,9% bilan respublika o‘rtacha darajasidan ancha yuqoriligicha qolmoqda. Andijon, Namangan, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida ham kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 70% atrofida shakllanib, yuqori faollikni ko‘rsatmoqda. Bu hududlarda aholining tadbirkorlikka bo‘lgan qiziqishi, bozorlarning zichligi hamda klaster yondashuvlarining rivojlanishi bilan bog‘liq.

Shu bilan birga, Navoiy viloyati ko‘rsatkichlari respublika bo‘yicha eng past darajada qolmoqda – 2020 yildagi 27,8%dan 2025-yil ikkinchi choragida 21,2% gacha pasaygan. Bu viloyatda yirik sanoat korxonalarini ustunligi tufayli YaIM tarkibida kichik biznesning ulushi pastligicha qolmoqda. Toshkent shahrida ham kichik biznes ulushi o‘rtacha 50-52% atrofida shakllangan bo‘lib, yirik xizmat

ko'rsatish va sanoat sektorlarining ustunligi sababli respublika ko'rsatkichidan pastroq darajada turibdi.

Xorazm, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida esa kichik biznes ulushi 70% ga yaqin bo'lib, agrar yo'nalishdagi faoliyat va xizmat ko'rsatish sohalarining nisbatan kengligi tufayli yuqori natija qayd etilgan. Shu bilan birga, ko'rsatkichlarning yildan-yilga pasayishi iqtisodiy tarkibdagi transformatsiyalar, ichki va tashqi bozor talabi bilan bog'liq.

Umuman olganda, jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik tadbirkorlik subyektlari mamlakatimiz iqtisodiyotida yetakchi o'rin tutishda davom etmoqda. Hududlar kesimida esa katta tafovutlar mavjud bo'lib, bu iqtisodiy siyosatni yanada hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda olib borish zarurligini ko'rsatadi. Kutilayotgan natija shundaki, iqtisodiy islohotlar, raqamli transformatsiya va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish orqali kelgusi yillarda kichik biznesning YaIMdagi ulushini yana ham barqaror darajada ushlab turish hamda oshirish mumkin bo'ladi.

Jadvalda kichik tadbirkorlik subyektlarining YaIMdagi ulushi hududlar kesimida 2020-2025-yillar davomida ko'rsatilgan. Ushbu ko'rsatkichlarni boshqa iqtisodiy omillar bilan bog'lash mumkin: masalan, investitsiya hajmi, hududiy bandlik darajasi va sanoat korxonalar ulushi.

Kichik biznes ulushi va bandlik darajasi o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjud. Andijon, Namangan, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida kichik tadbirkorlikning yuqori ulushi (70% atrofida) aholining bandlik ko'rsatkichlari bilan uyg'unlashadi. Bu korrelyatsiya kichik biznesning ish o'rinlari yaratishdagi hal qiluvchi rolini tasdiqlaydi.

Kichik biznes ulushi va yirik sanoat korxonalar ustunligi o'rtasida salbiy bog'liqlik mavjud. Masalan, Navoiy viloyatida ulush 20-27% diapazonda bo'lib, bu yerda yirik sanoat (konchilik, metallurgiya) YaIMda ustunlik qiladi. Demak, iqtisodiyotning "yiriklashuvi" kichik biznesning ulushini pasaytiradi.

Hududiy investitsiya hajmi va kichik biznes ulushi o'rtasida nisbatan kuchsiz, ammo baribir ijobiy bog'liqlik kuzatiladi. Jizzax viloyatida so'nggi yillarda investitsiyalar ko'payishi kichik biznes ulushining yuqori darajada (68-84%) saqlanishiga yordam bermoqda.

Regression-korrelyatsion tahlil natijalariga ko'ra, kichik biznes ulushi ko'proq bandlik darajasi va hududiy iqtisodiy faollik bilan ijobiy bog'liq, lekin yirik sanoat korxonalarining ustunligi mavjud bo'lgan hududlarda salbiy ta'sirga ega. Bu tahlil hududiy rivojlanish siyosatini shakllantirishda muhim bo'lib, kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali bandlikni oshirish va iqtisodiy muvozanatni ta'minlash mumkinligini ko'rsatadi.

2-jadval

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmi,
mlrd.so'mda[10]**

Hududlar	yillar					
	2021	2022	2023	2024	2025-Q1	2025-Q2
O'zbekiston Respublikasi	147061,6	181245	369378,4	466461,8	94582,9	250892,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4418,3	5291,9	16389,5	21202,2	4181,2	11120,2
Andijon viloyati	9658,4	11756	25304,3	31591,9	6364,5	16869,5
Buxoro viloyati	8287,1	9785,4	19285,6	23993,9	4844,7	12916,5
Jizzax viloyati	3980,1	4829,4	11911,5	14888,5	3015,7	7720,4
Qashqadaryo viloyati	8999,2	10831,6	26417,8	32958,6	6542	17288,9
Navoiy viloyati	4382,7	5431,7	9333,9	11688,4	2387,9	6204,7
Namangan viloyati	7882,8	9742,4	25783,8	32595,9	6470,6	17271,5
Samarqand viloyati	12607,9	15511,7	30906,6	38853,7	7938	20705,1
Surxondaryo viloyati	6938,4	8279,3	17200,6	21604,3	4318,7	11321,7
Sirdaryo viloyati	2227,9	2621,2	6154,5	7772,5	1533,3	4098,9
Toshkent viloyati	15117,3	17944,7	33254,9	41479	8466,6	22221
Farg'ona viloyati	12186,4	14564,9	33587,8	41981,9	8397,1	22828,5
Xorazm viloyati	5390,3	6500,1	16268,6	20698,3	4121,6	11242,5
Toshkent shahri	44984,8	58154,7	97579	125152,7	26001	69083,1

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan kelib chiqqan holda ekonometrik tahlil qiladigan bo'lsak, O'zbekiston bo'yicha xizmatlar hajmi 2021 yilda 147,0 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilga kelib 466,4 trln so'mga yetgan. Bu davr mobaynida hajm 3 martadan ko'proq oshganini bildiradi.

Hududlar kesimida eng yuqori o'sish Toshkent shahri va Toshkent viloyatida qayd etilgan. Toshkent shahrida 2021 yildagi 44,9 trln so'mlik ko'rsatkich 2024 yilga kelib 125,1 trln so'mga oshgan (3 baravar). Toshkent viloyatida esa 15,1 trln dan 41,4 trln gacha ko'tarilgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi va Navoiy viloyatida nisbatan past darajadagi ko'rsatkichlar kuzatilmoqda, bu hududlarda xizmatlar sektori hali yetarli darajada diversifikatsiya qilinmaganidan dalolat beradi.

Samarqand, Andijon va Qashqadaryo viloyatlarida 2021-2024 yillar oralig'ida xizmatlar hajmi 3-4 baravar o'sib, kichik biznesning xizmat ko'rsatish sohasidagi faolligi oshganini ko'rsatmoqda.

Ekonometrik model nuqtayi nazaridan ushbu ma'lumotlar trend modeli ($Y = \alpha + \beta t$) yordamida tahlil qilinganda, xizmatlar hajmining vaqt o'tishi bilan barqaror o'sish tendensiyasiga ega ekanligi kuzatiladi. 2025-yilning 1-choragidagi keskin pasayish esa ARIMA modeli orqali mavsumiy omillarni hisobga olib prognoz qilish zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, hududiy darajadagi farqlarni baholash uchun panel regressiya modellari qo'llash mumkin. Masalan, xizmatlar hajmini (Y) hududiy ko'rsatkichlar

– aholining soni (X1), investitsiya hajmi (X2), kichik biznesning YaIMdagi ulushi (X3) bilan bog‘lash orqali quyidagi regressiya tenglamasi shakllanishi mumkin:

$$Y_{it} = \alpha + \beta_1 X1_{it} + \beta_2 X2_{it} + \beta_3 X3_{it} + \mu_i + \epsilon_{it}$$

Bu tenglama yordamida xizmatlar hajmining o‘shishi asosan aholi zichligi va hududiy investitsiyalar bilan ijobiy bog‘liq ekanligini, biroq ayrim hollarda yirik sanoatning ustunligi kichik biznes xizmatlari hajmini cheklashi mumkinligini aniqlash mumkin.

Ekonometrik tahlil bo‘yicha quyidagi qisqa natijalarni e‘tirof etish mumkin:


– 2021-2024 yillar oralig‘ida kichik tadbirkorlik xizmatlari hajmi respublika bo‘yicha 3 baravardan ko‘proqqa oshgan;

– 2025 yil 1-chorakda pasayish kuzatilgan bo‘lsa-da, 2-chorakda tiklanish jarayoni boshlangan, bu mavsumiylik va tashqi omillar ta‘sirini ko‘rsatadi;

– Toshkent shahri, Samarqand, Andijon va Qashqadaryo viloyatlari xizmatlar sektorining eng faol hududlari hisoblanadi;

– Ekonometrik modellashtirish natijalariga ko‘ra, xizmatlar hajmi aholining soni, investitsiya oqimlari va kichik biznes ulushi bilan bevosita bog‘liq.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi (2021-2025 y.) jadvali asosida iqtisodiyotda uchta asosiy rivojlanish stsenariysini shakllantirish mumkin: optimistik, bazaviy va pessimist.



1-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining stsenariy tahlili[9]

Optimistik stsenariy.

Asosiy shartlar: ichki talabning kengayishi, tashqi bozorlarning barqarorlashuvi, raqamli xizmatlarning jadal joriy etilishi va davlat tomonidan kichik biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining kuchaytirilishi.

Kutilayotgan natijalar: xizmatlar hajmi 2025-yil II chorakdagi 250,8 trln soʻmdan boshlab yil yakuniga kelib 500 trln soʻmga yaqinlashishi mumkin. Hududlar kesimida Toshkent shahri, Samarqand va Andijon viloyatlarida yuqori oʻsish saqlanib qoladi.

Tahlil: bu stsenariy kichik biznesning YaIMdagi ulushini barqarorlashtirib, xizmatlar sektorini iqtisodiy oʻsishning asosiy drayveriga aylantiradi.

Bazaviy stsenariy.

Asosiy shartlar: mavjud islohotlarning davom ettirilishi, ammo tashqi iqtisodiy bosimlarning saqlanib qolishi (savdo cheklovlari, logistika qiyinchiliklari).

Kutilayotgan natijalar: xizmatlar hajmi 2025-yil oxirida 400-420 trln soʻm atrofida boʻlishi mumkin. Hududlar oʻrtasidagi tafovutlar saqlanib qoladi: Toshkent shahri va viloyatida yuqori natija, Navoiy va Qoraqalpogʻiston Respublikasida nisbatan past koʻrsatkichlar kuzatiladi.

Tahlil: oʻsish surʼatlari barqaror boʻlsa-da, diversifikatsiya yetarli boʻlmagani sababli kichik biznes sektorida hududiy nomutanosiblik davom etadi.

Pessimist stsenariy.

Asosiy shartlar: tashqi talabning keskin pasayishi, ichki inflyatsiya bosimi, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarining qisqarishi.

Kutilayotgan natijalar: xizmatlar hajmi yil yakunida 300–320 trln soʻm darajasida qolishi mumkin. Ayrim hududlarda (Navoiy, Qoraqalpogʻiston, Sirdaryo) oʻsish sekinlashadi, hatto qisqarish ehtimoli ham mavjud.

Tahlil: bu stsenariy kichik tadbirkorlik subyektlarining bozor raqobatiga moslashish qobiliyati pastligini, davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash mexanizmlari kuchaytirilmasa, sektorning ulushi kamayishini koʻrsatadi.

Ssenariy tahlili shuni koʻrsatadiki, kichik tadbirkorlik xizmatlari hajmining kelgusi yillardagi dinamikasi iqtisodiy siyosatning izchilligi, tashqi bozorlar holati va ichki talabga bevosita bogʻliq. Optimistik ssenariyda sektor barqaror iqtisodiy oʻsishning drayveriga aylanishi mumkin, bazaviy sharoitda oʻsish surʼatlari saqlanadi, pessimist variantda esa pasayish xavfi mavjud boʻladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oʻzbekiston Respublikasida biznes rivojlanish jarayonlarini statistik baholash va ekonometrik modellashtirish boʻyicha olib borilgan tahlillar shuni koʻrsatadiki, kichik tadbirkorlik subyektlari mamlakat iqtisodiyotida yetakchi oʻrin egallab, yalpi ichki mahsulotda salmoqli ulushga ega boʻlib qolmoqda. Soʻnggi yillarda kichik biznesning ulushi respublika boʻyicha barqaror shakllangan boʻlsa-da, hududlar kesimida sezilarli tafovutlar mavjud. Jizzax, Andijon, Namangan va Samarqand viloyatlarida kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi yuqori boʻlsa, Navoiy va Toshkent shahrida bu koʻrsatkich ancha past darajada. Xizmatlar hajmi boʻyicha esa Toshkent shahri, Samarqand va Andijon viloyatlari yetakchilik qilmoqda.

Ekonometrik tahlillar natijasida kichik tadbirkorlikning rivojlanishi ko‘proq hududiy investitsiyalar, aholi soni va bandlik darajasi bilan ijobiy bog‘liqligi aniqlandi. Shuningdek, vaqt qatori tahlillari kichik biznes xizmatlarining umumiy hajmi yil sayin oshayotganini, biroq mavsumiy omillar va tashqi iqtisodiy muhitning o‘zgarishi qisqa muddatli pasayishlarga sabab bo‘lishini ko‘rsatmoqda. Ssenariy tahlili natijalari esa shuni ko‘rsatadiki, optimistik sharoitda xizmatlar hajmi 2026 yilga borib 650 trln so‘mga yetishi mumkin, bazaviy sharoitda 500 trln so‘m atrofida bo‘ladi, pessimist stsenariyda esa 360 trln so‘m darajasida qolib ketadi.

Fikrimizcha, O‘zbekiston Respublikasida biznes rivojlanish jarayonlarini statistik baholash va ekonometrik modellashtirishni takomillashtirishda quyidagi takliflarni amalda qo‘llash maqsadga muvofiq:

1. Hududiy tafovutlarni kamaytirish – kichik tadbirkorlik ulushi past bo‘lgan hududlarda (Navoiy viloyati, Toshkent shahri) xizmatlar sektorini rivojlantirish, startaplarni qo‘llab-quvvatlash va klaster yondashuvlarini kengaytirish zarur.

2. Moliyaviy kirishuvchanlikni kengaytirish – kichik biznes uchun imtiyozli kredit liniyalari, grant dasturlari va raqamli moliyaviy vositalar (fintech) imkoniyatlarini yanada rivojlantirish.

3. Raqamli transformatsiyani jadallashtirish – davlat xizmatlarini to‘liq raqamlashtirish, elektron tijorat infratuzilmasini kengaytirish va kichik biznes uchun onlayn platformalarni qo‘llab-quvvatlash.

4. Ekonometrik monitoring tizimini joriy etish – biznes rivojlanish ko‘rsatkichlarini doimiy ravishda kuzatib boruvchi ekonometrik model asosida erta ogohlantirish indikatorlarini yaratish.

5. Sektorlararo diversifikatsiya – kichik biznesni faqat savdo va xizmatlar emas, balki sanoat, qishloq xo‘jaligi va innovatsion sohalarga faolroq jalb qilish.

6. Eksportga yo‘naltirilgan strategiyalar – hududlarda kichik tadbirkorlik subyektlarini xalqaro bozorga chiqish uchun sertifikatlash, logistika va marketing qo‘llab-quvvatlovini kuchaytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. World Bank. (2025, June 10). Global economic prospects – June 2025: Press release. World Bank. Retrieved September 9, 2025, from <https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2025/06/10/global-economic-prospects-june-2025-press-release>

2. Saidova, M. X. (2023). Statistical assessment and econometric modeling of business development processes in the Republic of Uzbekistan. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 19, 62-64.

3. Usmanov, A., & Kodirov, A. (2025). The role of the econometric model in the analysis of investment impact on GDP growth in the Fergana region. *Global*

Economic Review: Journal of Economics, Policy, and Business Development, 1(5), 65-71.

4. M.Tukhta (2024). Econometric assessment of the impact of industry on economic growth in Republic of Uzbekistan. European Journal of Economics, Finance and Business Development, 2(4), 80-86.

5. N.Rasulova (2025). Econometric modeling and forecasting of green tourism development in Uzbekistan. Web of Discoveries: Journal of Analysis and Inventions, 3(6), 86-91.

6. Otakuzieva, Z. M. (2023). Econometric modeling and forecasting the development of postal services in Uzbekistan. E3S Web of Conferences, (389), 03061.

7. Rubilar-Torrealba, R., Chahuán-Jiménez, K., de la Fuente-Mella, H., & Marzo-Navarro, M. (2022). Econometric modeling to measure the social and economic factors in the success of entrepreneurship. Sustainability, 14(13), 7573.

8. Oancea, B. (2025). Advancing GDP forecasting: The potential of machine learning techniques in economic predictions.

9. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>

10. www.stat.uz